



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
<b>Vaxtohonova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
<b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тадбиркорликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejapov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

**FOND BOZORLARIGA XORIJIY INVESTORLARNI JALB QILISHNI  
RAG‘BATLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ  
ИНВЕТОРОВ НА ФОНДОВЫЕ РЫНКИ**

**DIRECTIONS FOR ENCOURAGING THE ATTRACTION OF FOREIGN INVESTORS  
TO THE STOCK MARKETS**

**Ulugbek Narmanov** O‘zMU, PhD, katta o‘qituvchi  
**Sevinch Ikromova** O‘zMU talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqola xorijiy investorlarni qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb qilishning turli yo‘nalishlarini o‘rganishga va tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bu borada muhim bo‘lgan asosiy strategiyalar, vositalar hamda turli amaliy usullar haqida ma’lumotlar berilgan. Tadqiqot xorijiy bozorlarni o‘rganish va moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Maqola so‘ngida xorijiy investorlarni jalb qilish uchun ommabop va samarali yondashuvlar hamda tavsiyalar taqdim etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xorijiy investitsiyalar, fond bozorlari, investor ishonchi, bozor qoidalari, shaffoflik, investitsiyalarni rag‘batlantirish, bozor samaradorligi, kapital oqimi, risklarni boshqarish, xalqaro hamkorlik.

Данная статья посвящена изучению и анализу различных способов привлечения иностранных инвесторов на фондовый рынок. Представлены ключевые стратегии, инструменты и различные практические методы, важные в этом отношении. Исследование также включает в себя изучение зарубежных рынков и анализ финансовых показателей. В конце статьи представлены популярные и эффективные подходы и рекомендации по привлечению иностранных инвесторов.

**Ключевые слова:** Иностранные инвестиции, фондовые рынки, доверие инвесторов, рыночное регулирование, прозрачность, продвижение инвестиций, эффективность рынка, движение капитала, управление рисками, международное сотрудничество.

This article is devoted to the study and analysis of various ways of attracting foreign investors to the stock market. Key strategies, tools, and various practical methods that are important in this regard are presented. The research also includes the study of foreign markets and the analysis of financial indicators. At the end of the article, popular and effective approaches and recommendations for attracting foreign investors are presented.

**Key words:** Foreign investments, stock markets, investor confidence, market regulations, transparency, investment promotion, market efficiency, capital flow, risk management, international cooperation.

Xorijiy investorlarni ichki fond bozorlarida ishtirok etishga rag‘batlantirish bir vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va global moliyaviy integratsiyani rag‘batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda me‘yoriy-huquqiy baza, bozor shaffofligi, investor ishonchi va hukumat siyosati kabi bir qator omillarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, fond bozorlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun aniq strategiya va tashabbuslar zarurdir. Qimmatli qog‘ozlar bozorlarining xorijiy investorlar uchun jozibadorligini oshirish, uning samarali yo‘nalishlarini belgilab, bozor barqarorligini va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash nafaqat O‘zbekistonda,


shuningdek, xalqaro maydonda ham kapital oqimlarining harakatini kengaytirish borasida muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida bir qancha sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi olib borilayotgan amaliy ishlarga namuna sifatida “O‘zbekiston -2030” strategiyasining iqtisodiyot sohasidagi 49-maqsadini ya’ni “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish” maqsadini keltirishimiz mumkin. [1] Shuningdek, ushbu amaliy harakatlar davomida fond bozorlarida xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirishning samarali yo‘nalishlarini hamda chet el tajribalarini o‘rganish va tadbiiq qilish orqali mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligini va uzoq muddatli o‘shish istiqbollarini yanada mustahkamlashimiz zarurdir.

Investitsiya kiritish borasida iqtisodchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan rivojlanayotgan adabiyotlar to‘plami paydo bo‘lishda davom etmoqda. E’tiborga molik ishlar orasida Benjamin Grahamning "Aqlli investor: qimmatli investitsiya bo‘yicha aniq kitob" nomli kitobi mavjud bo‘lib, ushbu kitobda muallif fundamental tahlil, risklarni boshqarish va investitsiya psixologiyasi haqida tushuncha beradi hamda qisqa muddatli daromad topishdan ko‘ra uzoq muddatli qiymatga e’tibor qaratib, investitsiya qilishda intizomli va sabrli yondashuvni qo‘llash muhimligini ta’kidlaydi. [2]

Bundan tashqari, Robert G. Hagstrom tomonidan yozilgan "Uorren Baffetning yo‘li: dunyodagi eng katta sarmoyadarning investitsiya strategiyalari" kitobida Uorren Baffetning investitsiya strategiyalari, tamoyillari va falsafalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Uorren Baffetning shaxsiy hayoti, investitsiyaga bo‘lgan yondashuvi hamda qiymat sarmoyasi, xavfsizlik chegarasi kabi umumiy tushunchalar yoritib berilgan. [3]

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot konferentsiyasining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra 2021-yildagi to‘g‘ridan – to‘g‘ri investitsiyalarning kuchli o‘shidan so‘ng, global to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 2022-yilda 12 foizga qisqarib (1-rasm), 1,3 trillion dollarni tashkil etgan, bu asosan bir-biriga zid bo‘lgan global inqirozlar – Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi nizo, oziq-ovqat va energiya narxlarining yuqoriligi va davlatlar qarzlarning o‘shishi bilan bog‘liq bo‘lgan. [4]




**1-rasm. Jahon mintaqalarida to‘g‘ri investitsiyalarning o‘zgarishi (foiz) [5]**

Rivojlanayotgan mamlakatlarga esa investitsiyalar oqimi, 4%ga o‘sgan (1-rasm). Buning asosiy sababi esa, bir necha yirik rivojlanayotgan mamlakatlar sarmoyaning katta qismini jalb qilganligidadir.

Eng kam rivojlangan mamlakatlarga esa investitsiya oqimi kamaygan, bu pasayish asosan rivojlangan mamlakatlarda sezilgan, ularda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 37 foizga

qisqarib, 378 milliard dollarni tashkil qilgan. Ammo rivojlangan mamlakatlarda ijobiy o‘zgarish kuzatilgan bo‘lib, 2022-yil ushbu ko‘rsatkich 916 milliard dollarga yetdi, ya’ni 35 milliard dollar miqdoricha investitsiyalar miqdori oshdi (2-rasm).



**2-rasm. Jahon mintaqalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar miqdorlarining o‘zgarishi mlrd. AQSh dollari [6]**

Bugungi kunga kelib investitsiyalarning katta qismi asosan yashil iqtisodiyot uchun sarflanyapti, jumladan, yashil iqtisodiyot sohasidagi investitsiya loyihalari 2022-yilda 15 foizga o‘sgan. Elektronika, avtomobilsozlik, yarimo‘tkazgichlar va mashinasozlik sohalari uchun investitsiya loyihalari birmuncha ko‘paygan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot tarmoqlariga esa aksincha investitsiyalar kamaygan.

2024-yil boshlanishi bilan esa global investitsion muhit o‘zgaruvchan iqtisodiy dinamika va geosiyosiy noaniqliklar sharoitida rivojlanishda davom etmoqda. Ammo bu borada bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Tartibga solishning murakkabligi, siyosiy beqarorlik va bozorning o‘zgaruvchanligi xorijiy investorlarni fond bozorlarida to‘liq ishtirok etishda to‘sqinlik qilishda davom etmoqda. Bundan tashqari, atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv omillari bilan bog‘liq muammolar investitsiya qarorlariga tobora ko‘proq ta’sir qilmoqda va investorlarni shaffof va barqaror bozor muhitini izlashga undamoqda.

Xorijiy investorlarni fond bozorlariga jalb qilishni rag‘batlantirish uchun hukumatlar quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratishlari zarur:

1. Tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish;
2. Shaffoflikni oshirish;
3. Investor ishonchini oshirish;
4. Bozor barqarorligini rag‘batlantirish;
5. Transchegaraviy investitsiyalarni osonlashtirish;
6. Infratuzilmaga sarmoya kiritish;
7. Barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish;
8. Imtiyozlarni taqdim etish.

Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish orqali mamlakatlar xorijiy investorlar uchun jozibador va qulay muhit yaratishi, shu orqali iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun o‘z fond bozorlarining to‘liq imkoniyatlarini ochishi mumkin. Investorlar uchun qulay islohotlarni qabul qilish va bozor

yaxlitligini rag‘batlantirish orqali mamlakatlar iqtisodiy o‘shish va farovonlikni oshirish uchun fond bozorlarining to‘liq imkoniyatlarini ochishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. Benjamin Graham THE INTELLIGENT INVESTOR—Revised Edition. Copyright © 1973 New material: Copyright © 2003 by Jason Zweig. A. Publisher: Harper Business; Subsequent edition (February 21, 2006) | Language: English | Paperback: 640 pages | ISBN-10: 0060555665
3. The Warren Buffett Way - Robert G. Hagstrom. Publisher: John Wiley & Sons Inc; 3rd edition (January 1, 2013) | Language: English | Hardcover: 281 pages | ISBN-10: 1118503252 | ISBN-13: 978-1118503256
4. United Nations Conference on Trade and Development: World investment report 2023.
5. <https://www.lex.uz>
6. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>

**UDK: 331.1**

**SAMARALI FAOLIYAT IMKONIYATLARINI AMALGA OSHIRISHDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH DARAJASI VA UNI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

**УРОВЕНЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАВЫКОВ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПЕРСОНАЛА ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ЭФФЕКТИВНЫХ ОПЕРАТИВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПОВЫШЕНИЯ.**

**THE LEVEL OF USE OF MANAGEMENT PERSONNEL'S SKILLS IN IMPLEMENTING EFFECTIVE OPERATIONAL CAPABILITIES AND POSSIBILITIES TO INCREASE IT**

**Ayubxon Qutbiddinov Bosit o‘g‘li**  
Namangan Davlat Texnika Universiteti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada korxonalar samarali faoliyatini ta‘minlashda boshqaruv xodimlari qobiliyatlarining tutgan o‘rni, ularni baholash mexanizmlari hamda kompetensiyalar darajasini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalariga tayangan holda, korxonalarda inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv xodimlari, kompetensiya, samarali faoliyat, boshqaruv salohiyati, menejment usullari, strategik boshqaruv.

В данной статье анализируется роль способностей управленческого персонала в обеспечении эффективной деятельности предприятия, рассматриваются механизмы их оценки, а также возможности повышения уровня компетенций. На основе современных концепций менеджмента разработаны подходы, направленные на повышение эффективности использования человеческих ресурсов в организациях.

**Ключевые слова:** управленческий персонал, компетенции, эффективная деятельность, управленческий потенциал, методы менеджмента, стратегическое управление.

This article analyzes the role of managerial staff competencies in ensuring effective enterprise performance, the mechanisms for assessing their capabilities, and opportunities for enhancing